

ADABIY ONA TILIMIZNING FUNKSIONAL USLUBLARI

Jumaniyazova Sabohat

Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi 2-g guruhi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiy ona tilimizning funksional uslublari hisoblangan so’zlashuv uslubi, badiiy uslub, ilmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub va publitsistik uslub haqida hamda ularning qo’llanish doiralari to’g’risida so‘z yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *nutq uslublari, uslubiyat, uslubshunoslik, badiiy uslub, rasmiy uslub, ilmiy uslub, so’zlashuv uslubi, muloqot*

Tilimiz benihoya boy, uning so‘z zaxirasi bir necha yuz minglar bilan o’lchanadi, bu zaxira birliklari orasidagi birgina ma’nodoshlikning o‘zi har bir tushunchaning butun ikir-chikirigacha, hattoki, so‘zlovchining bu tushunchaga bo‘lgan yaxshi-yomon munosabatigacha ifodalana olishiga yo‘l ochadi. Tilimiz boyligini buyuk mutafakkirimiz, buyuk avliyo, g’azal mulkining sultonini bo’lmish Mir Alisher Navoiy o’z asarida yigirma oltiming o’ttiz beshta so‘z qo’llab, butun jahonga isbotlab bergen. Bizning ona tilimizning ichki qurilishi ham o’ziga xos va betakror. Har bir so‘z qo’llanish doirasiga ega.

Turli nutqiy vaziyatlar, ijtimoiy-aloqa sharoitlari, so‘zlovchining ko‘zlagan asosiy maqsadiga muvofiq farqli nutq ko‘rinishlari yuzaga keladi, ular nutqiy uslublar sifatida o‘ziga xosliklarga ega bo‘ladi. Tilning rang-barang zaxirasidan tegishli til birliklarini tanlash va ularni uslub talablariga mos ravishda qo’llashning ham qat’iy qoidalari mavjud. Ularni, ya’ni uslubiyat qonuniyatlarini yetarli darajada bilmasdan turib, nutqning aniqligi, ta’sirchanligi va rasoligiga erishib bo’lmaydi.

Hammamizga ma'lumki, grammatika to‘g‘ri gapirish va yozishni o’rgatadi. Lekin biz bu bilan o’zimiz ko‘zlagan maqsadni tinglovchiga yetkazib bera olmaymiz. Har qanday vaziyatda ham bir xil qolipdagi so’zlardan foydalansak bizning nutqimiz ta’sirchan va ifodali chiqmaydi. Bu muammolardan xalos bo’lish uchun nutq uslublariga yuzlanishimiz darkor. Nutq uslublarini o’rganuvchi tilshunoslik bo’limi esa, uslubshunoslik deyiladi. Nutq uslublari besh xil bo’lib, ular; so’zlashuv uslubi, badiiy uslub, ilmiy uslub, rasmiy uslub va publitsistik uslublardir. Hamma narsada bo’lgani kabi nutqiy uslublarda ham so’zlar ikki guruhga bo’linadi ya’ni uslub xoslangan so’zlar va uslubiy xoslanmagan so’zlar(ilmiy terminda uslubiy neytral)ga bo’linadi. Uslubiy

xoslangan so'zlar bu- faqatgina ma'lum uslub doirasidagina qo'llaniladigan so'zlardir. Masalan, yozma nutqda quyidagi, yuqoridagi kabi so'zlar qo'llaniladi, ammo bularni og'zaki nutqda qo'llash judayam g'alizdir. Uslubiy xoslanmagan so'zlar tilimizda bir qancha. Ularga: maktab, aka-uka, uy, quyosh, oy, qalam, ruchka, gul, qog'oz va shu kabilar. Endi nutq uslublari bilan birma-bir tanishib chiqamiz.

Muloqotning turli vaziyatlari hamda turli nutqiy uslublarda nutqning og'zaki va yozma shakliga aloqadorlik turlichadir. Biz bilamizki, nutqiy uslublarning so'zlashuv, publitsistik, badiiy, ilmiy va rasmiy kabi asosiy turlari mavjud. Ular orasida so'zlashuv uslubi, asosan, og'zaki nutq shaklida namoyon bo'ladi. Bu uslub ayni shu jihat bilan ham boshqa uslublardan farq qiladi. So'zlashuv uslubining adabiy so'zlashuv turi ham, oddiy so'zlashuv turi ham og'zaki shaklda voqelanadi. Bunda adabiy so'zlashuv uslubi kundalik aloqalarashuvda yetakchilik qilishini unutmasligimiz lozim. Biz so'zlashuv uslubida tilimizdagi barcha xil-xususiyatlardan foydalanishimiz mumkin bo'ladi. Bu uslub boshqa uslublarga qaraganda cheksiz. So'zlashuv jarayonlarida biz qisqa gaplardan, ko'proq ibora va o'xshatishlardan, xullas nutq tuzish jarayonida nimaiki darkor bo'lsa, barchasidan qo'llanishimiz mumkin.

Muloqot vaziyati va sharoitiga muvofiq publitsistik, badiiy, ilmiy va rasmiy uslublar nutqning yozma shakliga mansubdir. Bu uslublar, asosan, yozma nutq shaklida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ish qog'ozlaridagi rasmiy uslub faqat yozma shaklda bo'ladi. Unutmaslik lozimki, mazkur uslublarda yozma shakl yetakchilik qilsa-da, o'rni bilan ba'zan og'zaki shakldan ham voz kechib bo'lmaydi. Masalan, ilmiy uslubning asosiy ko'rinishlari bo'lgan monografiya, dissertatsiya, darslik, maqola va shu kabilar, albatta, yozma shaklda yaratilsa-da, ilmiy ma'ruzalar og'zaki shaklda o'qiladi. Yoki badiiy uslubga mansub sahna asarlari ijrosidagi og'zakilikni inkor etib bo'lmaydi.

Publitsistik uslub- bu ommaviy-axborot vositalari tili hisoblanadi. Gazeta-jurnallar, radio, televide niye ko'rsatuvlari barchasi publitsistik uslubga kiradi. Bu uslubning o'ziga xos jihat, yetti yoshdan yetmish yoshgacha barcha uchun tushunarli bo'lishidadir. So'zlashuv uslubida yoki ilmiy uslubdagi so'zlarga hamma tushunmasligi mumkin, lekin ommabop uslub barchaga birdek tushunarli va aniq bo'ladi.

Rasmiy-idoraviy uslub- adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubi sanaladi. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlidir, unda muayyan nutqiy qoliblar, kasb-hunar so'zları,

atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi.

Badiiy uslub - badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga xos bo`lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchlidir. Obrazilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir.

Badiiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o'quvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik ta'sir etishga yo'naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalardan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko'lami, ijod usuli, poetikmahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir. Barcha turdag'i san'at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi. Obrazilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir.

Fan va texnika tili ilmiy uslub deyiladi. Daliliy munosabatlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil bayon qiluvchi uslub ilmiy uslubdir. Ilmiy uslubda ko'proq atama va terminlardan, uzun qolipli gaplardan foydalaniladi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish kerakki, tilimizning ichki imkoniyatlari cheksiz, ulardan qanday foydalanish o'zimizga bog'liq. Maqolam so'ngida buyuk yozuvchimiz Abdulla Qahhorning so'z tanlash mahorati haqida ozgina aytib o'taman. U o'zi yozgan badiiy asarini shevaga oid so'z bilan nomlaydi "Sinchalak". Eshitilishi jarangdor va har qanday odamni o'ziga tortadi. Bu so'zning adabiy tildagi muqobili "chittak" bo'lib, u qushning qo'nimsizligiga ishora. Sinchalakda esa qushning nozikligiga ishora. Ko'rindiki, har qanday so'zni uslubiy bo'yagan holda qo'llasak, biz uchun foydadan xoli bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Ona tili" 10-sinf darsligi Toshkent 2018
2. "Ona tili" Madrim Hamroyev Toshkent 2018

3. "O'zbek tilining izohli lug'ati" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2006-2008yillar
4. "Ona tili" G'.Abdurahmonov, H.Rustamov Toshkent 2004
5. N.Mahmudov Ona tili (10-sinflar uchun darslik)